

**JISMONIY SHAXSLARNING BANK KARTASIGA
MILLIY VALYUTADA MIKROQARZ BERISH TO'G'RISIDA
— - SONLI SHARTNOMA**

Toshkent sh.

«___» ____ .20 __y.

Shartnomani tuzish sanasiga kreditning to'liq qiymati: <hr/> (yillik foiz)

Kreditning to'liq qiymati: <hr/> (so'zda) so'm
--

Keyingi o'rnlarda "Bank" deb yuritiluvchi «Octobank» AJ nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi Amaliyot boshqarmasi boshlig'i _____ bir tomondan va keyingi o'rnlarda "Qarz oluvchi" deb yuritiluvchi, _____.20____ yilda _____ IIB tomonidan berilgan _____ seriyali passport egasi, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi _____ ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani (keyingi o'rnlarda Shartnoma) quyidagilar to'g'risida tuzdik:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank Qarz oluvchiga ____ (_____) oy muddatga _____,00
(_____) so'm 00 tiyin miqdorida (asosiy qarz) Mikroqarz beradi, Qarz oluvchi esa olingan summani Bankga to'liq hajmda qaytarish va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq foydalanish uchun hisoblanagan foizlarni to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Mikroqarz qaytarish, to'lash, ta'minlash va muddatli shartlar asosida beriladi.

1.3. Asosiy tushunchalar:

- Mikroqarz bu –Mijozning bank kartasiga xizmat ko'rsatuvchi maxsus karta hisobiga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda mablag'larni kiritish yo'li bilan beriladigan pul mablag'laridir;
- Bank kartasi (BK) – Bank tomonidan chiqarilgan va uning egasiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) va to'lovlarini amalga oshirish va (yoki) naqd pul olish uchun tegishli karta hisobvarag'idagi qoldiq doirasidagi mablag'larni boshqarish imkonini beruvchi UzCard, HUMO va boshqa to'lov tizimlarining shaxsiy bank kartasi;
- BK egasi (mijoz) – Shartnoma tuzgan Qarz oluvchi;
- Karta hisobi (KH) – BK yordamida amalga oshirilgan kirish va chiqish amaliyotlarini aks ettirish uchun hisob. KH BK egasining asosiy hisobidir.

2. Mikroqarz berish va qarzni so'ndirish tartibi

2.1. Mikroqarz berish Bank qoidalarida belgilangan shartlar va tartibda amalga oshiriladi.

2.2. Mazkur Shartnomaning 4.1-bandagi shartlari bajarilgandan so'ng, Bank Mikroqarz miqdorini BK Egasining KH ga o'tkazadi.

2.3. Mikroqarzni to'lash ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-ilovada ko'rsatilgan Shartnoma bo'yicha kreditni so'ndirish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. To'lov jadvali asosiy qarzni to'lash uchun to'lovlarini hamda annuitet usulidan foydalangan holda hisoblangan muddatli foizlarni o'z ichiga oladi.

2.4. Agar kreditni so'ndirish jadvalida (1-sonli ilova) ko'rsatilgan to'lov muddati bank ish kuni bo'lmasa, Mikroqarzni to'lash keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi.

2.5. Bank hisob raqamlariga ish kunlari soat 22.00 dan keyin, dam olish va/yoki bayram kunlari kiritilgan mablag'lar keyingi ish kunitdan hisoblanadi.

2.6. Agar Qarz oluvchi ushbu Shartnomada belgilangan muddatda asosiy qarzni to'lamasa, Bank qarzning to'lanmagan summasini muddati o'tgan ssudalar hisobiga o'tkazadi. Qarz oluvchi to'lanmagan qarzlari muddati o'tgan ssudalar hisobida bo'lgan har bir kun uchun stavka bo'yicha ushbu Shartnomaning 3.2-bandiga muvofiq foizlar to'laydi.

2.7. Qarz oluvchidan yoki uchinchi shaxslardan ushbu Shartnoma bo'yicha asosiy qarz va foizlarni to'lash uchun kelib tushgan mablag'lar yoki Qarz oluvchi/Kafilning istalgan hisobvaraqlaridagi mablag'lar ko'rsatmalardan qat'i nazar, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'lash uchun quyidagi tartibda hisobga olinadi:

2.7.1. mutanosib ravishda muddati o'tgan asosiy qarz va muddati o'tgan foizlar bo'yicha to'lovlar;

2.7.2. joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun to'lanmagan asosiy qarz;

2.7.3. neustoyka (jarima, penya);

2.7.4. kreditorning qarzni to'lash bilan bog'liq boshqa xarajatlari.

2.8. Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan Mikrokredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni, jarimalarni, penyalarni va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash to'lovchining arizalarini, bank topshiriqlarini bank tomonidan bajarish va/yoki Qarz oluvchi yoki Kafilning depozit hisobvaraqlari va bank kartalaridan barcha mablag'larni to'g'ridan-to'g'ri hisobdan yechish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu shartnoma bilan Qarz oluvchi Bankga Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni, jarimalarni, penyalarni va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash uchun o'z mablag'larini so'zsiz to'g'ridan-to'g'ri, hech qanday shartlarsiz va qaytarib olish imkoniyatisiz hisobdan chiqarish huquqini beradi.

2.9. Asosiy qarzni to'lash ushbu Shartnoma bo'yicha berilgan Mikroqarz hisobga olingan ssuda hisobvarag'iga amalga oshiriladi va hisoblangan foizlar ushbu Shartnoma doirasida Mikroqarz bo'yicha hisoblangan foizlar hisobiga o'tkaziladi. Asosiy qarzni va u bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash sanasi ko'rsatilgan hisobvaraqlarga mablag'lar kelib tushgan kun hisoblanadi.

2.10. Mikroqarzni muddatidan oldin qisman to'lanishi:

- to'lov jadvalida ko'rsatilgan to'lov sanasida yoki
- to'lov jadvalida ko'rsatilgan sanadan boshqa sanada amalga oshiriladi, lekin to'lov sanasida Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz qoldig'i summasiga hisoblangan foizlar to'lanishi kerak.

Mikrokredit qisman muddatidan oldin to'langanidan keyin.

Kelib tushgan mablag'larning ortiqcha qismi Bank tomonidan mustaqil ravishda asosiy qarzni to'lashga yo'naltiriladi va oylik to'lov miqdori kamaytiriladi.

2.11. Qarz oluvchi yoki uchinchi shaxslar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'lash uchun bankka o'z faoliyati natijalaridan olingan daromadlarni, pensiya va boshqa daromadlarni o'tkazadilar yoki naqd pul yoki bank kartalaridan pul mablag'larini Bank kassasiga o'tkazadilar, shuningdek, omonatlari hisobidan Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda naqd bo'limgan shaklda mablag'lar o'tkazadilar.

2.12. Qarz oluvchining asosiy qarz summasini va ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan hisoblangan foizlarni Bankka qaytarish bo'yicha majburiyatlarini bajarish tegishli buyruq bilan Qarz oluvchi bilan bog'liq bo'lgan uchinchi shaxsga to'liq yoki qisman topshirilishi mumkin.

2.13. Shartnomaning muhim sharti bo'lib asosiy qarz va foizlarni o'z vaqtida to'lash hisoblanadi.

3. Mikroqarzdan foydalanganlik uchun to'lov

- 3.1.** Bank Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning haqiqiy qoldig'iiga yillik ____% (_____) foiz miqdorida foizlar hisoblaydi.
- 3.2.** Kreditni so'ndirish jadvalida nazarda tutilgan (1-ilova)mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni to'lash shartlari buzilgan taqdirda, foiz stavkasi 1,5 baravarga oshiriladi va muddati o'tgan qarz paydo bo'lgan bиринчи kundan boshlab u to'liq qaytarilgunga qadar Bank Mikroqarz bo'yicha muddati o'tgan asosiy qarzning haqiqiy qoldig'i bo'yicha yiliga ____% (_____) foiz stavkasi bo'yicha foizlar hisoblaydi. Bankning qarzni undirish to'g'risidagi talabi Qarz oluvchiga taqdim etilgandan so'ng, Mikroqarz muammoli aktiv toifasiga o'tkaziladi va u bo'yicha keyingi foizlarni hisoblash qonun hujjatlarida va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 3.3.** Qarz oluvchi tomonidan olingan Mikroqarzni hisobga olish uchun Bank avval imzolangan/akseptlangan ariza asosida Qarz oluvchiga tegishli hisobvaraqlar ochadi.
- 3.4.** Mikroqarzning asosiy qarz qoldig'i bo'yicha foizlari har kuni ish kunining oxirida yiliga 365 kun va har oydagи kunlarning haqiqiy sonidan kelib chiqib hisoblanadi. Mikroqarzning bir qismi yoki to'liq miqdori berilgan kundan boshlab hisoblash amalga oshiriladi. Mikroqarzdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi o'zgarmaydi.
- 3.5.** Qarz oluvchi Mikroqarzdan foydalanganlik uchun bank foizlarini kreditni so'ndirish jadvalida belgilangan asosiy qarzni to'lash muddatlarida to'laydi (1-soni ilova).
- 3.6.** Mikroqarzning qaytarilmasligi (to'lanmasligi) xavfi uchun sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofoti Qarz oluvchining o'z mablag'lari hisobidan to'liq yoki qisman to'lanishi mumkin.

4. Mikroqarzning qaytarilishini ta'minlash, bankning huquqlari va kafolatni ta'minlash choralari.

- 4.1.** Mazkur Shartnoma bo'yicha beriladigan Mikroqarz Mikroqarzning qaytarilmasligi (to'lanmasligi) sug'urta polisi bilan kafolatlanadi (*Sug'urta tashkilotining nomi, polisning nomi, uning sanasi va raqami ko'rsatilsin*). Sug'urta summasi _____.00 (_____) so'mni tashkil etadi.
- Bank o'z xohishiga ko'ra, o'z mablag'lari hisobidan Qarz oluvchini xabardor qilmasdan Mikroqarzning qaytarilmasligi (to'lanmasligi) xavfini sug'urta qilishga haqli. Sug'urta hodisasi yuz berganda foya oluvchi bank hisoblanadi.
- 4.2.** Mikroqarzning qaytarilmasligi (to'lanmasligi) xavfi bo'yicha tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta polisi ushbu Shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran ____ kalendar kun ichida tuzilishi va Bankga taqdim etilishi kerak.
- 4.3.** Mikroqarzni to'lash muddati kelganda, Kafil/uchinchi shaxslar Mikroqarz bo'yicha qarzni to'lash huquqiga ega bo'ladilar. Kafil bankning roziligi bilan kafolat miqdori doirasida Mikroqarzni muddatidan oldin to'lash huquqiga ega. Uchinchi shaxslar Mikroqarzni muddatidan oldin to'lash huquqiga ega.
- 4.4.** Bank o'z xohishiga ko'ra sug'urta hodisasi yuz bergenligi munosabati bilan sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza bilan Sug'urtalovchiga yoki Qarz oluvchiga o'z da'vo huquqlarini qo'llaydi. Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi da'veoning taqdim etilishi Bankning Qarz oluvchiga Mikroqarzni muddatidan oldin to'lash to'g'risida talab qo'yish imkoniyatini istisno etmaydi.

5. Bank huquqlari

5.1. Bank Qarz oluvchining moliyaviy holatini, Mikroqarz bo'yicha qarzning to'lanishini, kredit yukining Qarz oluvchining joriy moliyaviy ahvoliga muvofiqligini, Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi uchun mablag'lar kelib tushishining taxminiy muddatlari va miqdorini, Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarolmay qolishiga olib kelishi mumkin bo'lga vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimolini tekshirishga haqli (shu jumladan, ish joyini yo'qotish natijasida daromadning kamayishi, ularga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra ish haqi va boshqa daromadlarni olishning kechikishi, ishni o'zgartirish yoki sog'lig'ining yomonlashishi kabi). Bunday tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari Bank tomonidan belgilanadi.

5.2. Asosiy qarz, foizlar, jarimalar va penyalar, Bank tomonidan to'langan sug'urta mukofotini qoplash, va / yoki Shartnoma bo'yicha boshqa to'lovlar to'lanishi kerak bo'lga muddat kelganida, Bank Qarz oluvchi yoki Kafilning barcha hisobvaraqlari va bank kartalaridan pul mablag'larini akseptsiz va so'zsiz hisobdan yechish huquqini oladi.

5.3. Qarz oluvchidan asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni o'z ichiga oluvchi muddati o'tgan qarz summasini undirish to'g'risidagi da'vo, yoki kreditni muddatidan oldin undirish uchun da'vo arizasini bank tomonidan sudga taqdim qilish sud qarorini berish to'g'risida ariza topshirish yoki ijro varaqasini berish to'g'risida ariza bilan notarial idoraga murojaat qilish yoki da'vo arizasini yurituvga olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.4. Quyidagi hollarda:

- Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini, shuningdek, Qarz oluvchida yuzaga kelishi mumkin bo'lga boshqa majburiyatlar (ushbu Shartnomadan tashqari) buzilishi va/yoki bajarmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi;
- Qarz oluvchining moliyaviy ahvolining yomonlashishi;
- Bank Qarz oluvchining noto'g'ri ma'lumot bergenligini aniqlaganida;
- Qarz oluvchining bank nazorati yoki tegishli tekshiruvdan bo'yin tovashi;
- Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlnari o'z vaqtida qaytarmaslik;
- Mikroqarzning qaytarilmasligi xavfini oshiradigan har qanday omillarning paydo bo'lisi;
- Qarz oluvchi tomonidan hisob va/yoki hisobvaraqlarni yopish va boshqa bankka o'tkazish;
- ushbu Shartnomaning boshqa shartlarini buzish va/yoki bajarmaslik;
- har qanday davlat organlari tomonidan Qarz oluvchining mol-mulkining yoki boshqa aktivlarining to'liq yoki muhim qismini musodara qilish, milliylashtirish yoki boshqa yo'llar bilan ekspropriatsiya qilish yoki Qarz oluvchining mulkini/boshqa aktivlarini saqlash uchun qabul qilish yoki nazoratga olish yoki Qarz oluvchining Mikroqarz bo'yicha qarzini to'lashiga to'sqinlik qiladigan har qanday harakatlarni amalga oshirish;
- Qarz oluvchiga yoki qarz oluvchi bilan bog'liq bo'lga uchinchi shaxslarga nisbatan agar bu qarz oluvchining to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa jinoiy yoki fuqarolik ishlari bo'yicha ish qo'zga'tish yoki yuritish;
- Bankda firibgarlikka qarshi kurash bo'yicha bankning ichki siyosati va tamoyillariga muvofiq ushbu Shartnoma bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish/tasarruf etish bo'yicha shubhalar bo'lsa;

Bank quyidagi huquqlarga ega bo'ladi (sug'urta hodisasi yuz bergenligi munosabati bilan sug'urta tovonini to'lashni sug'urtalovchidan talab qilish huquqi qo'llanilishidan qat'i nazar):

- Mikroqarzni muddatidan oldin undirishni talab qilish;
- ushbu Shartnoma bo'yicha yangi summalar va/yoki yangi Mikroqarzlar berishni to'xtatish;
- Qarz oluvchi/kafilning Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarzni, foizlarni va/yoki Mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlnarni

to'lashga yo'naltirgan holda mablag'larni akseptsiz va shartlarsiz yechib olish, va ular mavjud bo'limgan hollarda esa - boshqa hisoblardan, shu jumladan boshqa banklardagi hisoblardan yechib olish;

- Qarz oluvchining Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, ular bo'limganda esa boshqa hisobvaraqlaridan, shu jumladan boshqa banklardagi hisoblardan akseptsiz va shartlarsiz pul mablag'larini hisobdan yechish va va ulardan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi tomonidan Bankka qaytarilgan summani to'lash uchun foydalanish.

5.5. Bank ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini qonun hujjalarda belgilangan tartibda to'liq yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazishga haqli.

5.6. Agar Qarz oluvchi ushbu Shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran 1 (bir) oy mobaynida ushbu Shartnoma bo'yicha Mikroqarzdan foydalanmasa, Bank Qarz oluvchiga kutilayotgan bekor qilish sanasidan 3 (uch) kalendar kun oldin bu haqda yozma ravishda xabar qilish yo'li bilan ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli. Yozma xabarnoma yuborilgan sana uni yetkazib berish sanasi yoki pochta orqali jo'natilgan sana yoki elektron xabarni elektron pochta orqali yuborish sanasi yoki Qarz oluvchining mobil telefon raqamiga xabar (SMS) yuborish sanasi hisoblanadi.

5.7. Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlari lozim darajada bajarilmagan yoki bajarilmagan taqdirda Bank bir tomonlama tartibda ushbu Shartnomani bajarishni rad etishga va Shartnomani bekor qilishga haqli.

5.8. Bank Mikroqarz berishdan oldin kredit tarixini tekshirish uchun Kredit byurosiga takroriy so'rov yuborishga haqli.

5.9. Bank firibgarlikning oldini olish va bartaraf qilish maqsadida kredit mablag'laridan foydalanishga chekllovlar o'rnatishga haqli. Avval o'rnatilgan chekllovni yechish maqsadida Bank qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish va Qarz oluvchidan kerakli tasdiqlarni olish huquqiga ega.

5.10. Bank o'z xohishiga ko'ra Shartnomada ko'rsatilgan huquqlar/talablardan birini qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Ushbu huquqlar/talablarning amalga oshirilmasligi yoki qisman qo'llanilishi ushbu huquqlar/talablardan voz kechilganligini anglatmaydi va ular ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtida qo'llanilishi mumkin.

6. Bank majburiyatları

Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

6.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnomada nazarda tutilgan Mikroqarz miqdori doirasida va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda qarz mablag'larini taqdim etish.

6.2. Ushbu Shartnomaning 3.1 va 3.2 bandlariga muvofiq Mikroqarzning foydalanylган qismi uchun foizlar hisoblash.

7. Qarz oluvchining huquqlari

7.1. Qarz oluvchi Mikroqarz bo'yicha qarzini istalgan vaqtida Bankdan jarimalar qo'llanilmagan holda to'liq yoki qisman muddatidan oldin to'lash huquqiga ega.

7.2. Mikroqarz olishdan oldin kreditlash shartlari va Mikroqarz berish tartibi bilan tanishib chiqish.

7.3. Shartnoma tuzilgandan keyin pul mablag'larini olishdan oldindi davrda Mikroqarzni olishdan bepul voz kechish.

7.4. Bankdan Mikroqarzning holati to'g'risida ma'lumot va tegishli maslahatlar olish.

8. Qarz oluvchining majburiyatları

Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

8.1. Mikroqarzdan foydalanish jarayonida muddatlilik, qaytarish, to'lov va kafillik kabi asosiy tamoyillarga rioya qilish.

8.2. Ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni, jarimalarni, penyalarni va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash.

8.3. Olingan Mikroqarzni qaytarish va Mikroqarzdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni Bankdan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi talab olgandan keyin to'lash.

8.4. Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchi tomonidan Bankka qaytarilgan summani qaytarish.

8.5. Ushbu Shartnomaning 5.1-bandda ko'rsatilgan Bankning nazorat funktsiyalarini amalga oshirish uchun:

- Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni har qanday manbalar va ma'lumotlar va hujjatlardan foydalangan holda, shu jumladan yashash joyi, ish joyi va h.k. larga tashrif buyurib tekshirish va qayta tekshirish imkonini Bankga, uning xodimlari va huquqiy vorislariiga berish;
- Bank so'rov yuborgan kundan boshlab 5 (Besh) kalendar kuni ichida Bankning yozma so'roviga binoan individual, shaxsiy, biografik ma'lumotlar yoki boshqa ma'lumotlarni taqdim qilish. Yozma so'rov yuborilgan sana uni yetkazib berish yoki pochta orqali jo'natish sanasi hisoblanadi.

8.6. Qarz oluvchining moliyaviy ahvolining yomonlashishiga va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik xavfiga olib kelishi mumkin bo'lган har qanday majburiyat va choralarini ko'rmaslik.

8.7. Tegishli Shartnomalar/hujjatlarni ushbu Shartnomaning 4.1-4.2-bandlarida, shuningdek to'lovlar jadvalida ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda tuzish/imzolash/bajarish.

8.8. Qarz oluvchi bankka u to'lagan sug'urta mukofoti summasini, sud xarajatlarni, qarzni majburiy undirish bilan bog'liq xarajatlarni, shuningdek, Mikroqarz berish bilan bog'liq bankga yetkazilgan zararlarni qoplash majburiyatini oladi.

8.9. Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi Mikroqarz olish uchun ariza topshirish vaqtida Octomobile Bank mobil ilovasiga qo'shilgan (yoki biriktirilgan) shu jumladan, Mikroqarz berish yoki skoring o'tkazish uchun foydalilanigan bank kartalarini Octomobile mobil ilovasidan ajratmaslik / o'chirmaslik majburiyatini oladi. Bundan tashqari, agar ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Qarz oluvchi ish haqi yoki uning asosiy daromadini hisobga olish uchun yangi bank kartasini o'zgartirsa/almashtirsa/emissiyasini o'tkazsa, qarz oluvchi ushbu kartani Octomobile mobil ilovasiga darhol qo'shish (biriktirish) majburiyatini oladi.

8.10. Mikroqarz olish uchun arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning o'garishi to'g'risida, shu jumladan, Qarz oluvchining pasport ma'lumotlari, ro'yxatga olish manzili, haqiqiy yashash joyi, ish joyi, familyasi, ismi, otasining ismi va/yoki Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lган boshqa o'zgarishlar yuz bergenligi to'g'risida bunday o'zgarishlar kiritilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida bankni xabardor qilish.

8.11. Bankning ushbu Shartnomada va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida nazarda tutilgan huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmaslik.

8.12. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini Bankning yozma roziligesiz to'liq yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazishga haqli emas.

9. Tomonlarning javobgarligi

- 9.1.** Mikroqarz berish majburiyatini bajarmaganligi yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun Bank Qarz oluvchi oldida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.
- 9.2.** Qarz oluvchi Shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida bankka yetkazilgan yo'qotish va zararlar uchun mulkiy javobgar hisoblanadi.
- 9.3.** Bank ushbu shartnomalar bo'yicha to'lanmagan mablag'larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlarni va boshqa qo'shimcha to'lovlarni tolashni, shuningdek, Qarz oluvchi tomonidan Bankka yetkazilgan barcha yo'qotishlar va zararlar uchun Qarz oluvchining ish haqi, boshqa mablag'lari va uning boshqa likvid mulki hisobidan qarz oluvchi tomonidan qoplanishini talab qilishga haqli.
- 9.4.** Qarz oluvchilarning masofaviy bank xizmatlaridan (MBX) va Mikroqarz mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq barcha harakatlari uchun Qarz oluvchining o'zi javobgar hisoblanadi.

10. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari

- 10.1.** Shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik tabiiy ofatlat, harbiy harakatlar; yoki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ya'ni urush holati, blokadalar, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni taqiqlash agar ular Shartnomalar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir qilsa; davlat organlari tomonidan ushbu Shartnomalar shartlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qonun hujjatlarini qabul qilish kabi yengib bo'lmaydigan kuchlar holatlari natijasida vujudga kelsa, tomonlar Shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik uchun javobgar bo'lmaydilar. Bunday holda, Shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish fors-major holatlari davom etadigan muddatga kechiktiriladi.
- 10.2.** Shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan tomon boshqa tomonni fors-major holatlarining boshlanishi va tugashi to'g'risida darhol, lekin har qanday holatda ham ular boshlanganidan keyin 10 kundan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

11. Boshqa shartlar

- 11.1.** Ushbu Shartnomalar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va Bank va Qarz oluvchi ushbu Shartnomalar bo'yicha o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarni to'liq bajarmaguncha amal qiladi.
- 11.2.** Ushbu Shartnomalar shartlaridagi har qanday o'zgarish tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan amalga oshiriladi va yozma kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu Shartnomaga qo'shimcha bitimlar, agar ular Bankning xabarlisiz tuzilgan bo'lsa va ushbu shartnomalarda Bankning imzolari va muhrлari bo'lmasa, yuridik kuchga ega bo'lmaydi.
- 11.3.** Mikroqarzni to'lash jadvali qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, avval amal qilgan to'lovlardan qayta rasmiylashtirilgan kundan boshlab avtomatik ravishda o'z kuchini yo'qotadi.
- 11.4.** Nizolar yuzaga kelgan taqdirda, bank yozuvlari ushbu Shartnomalar bo'yicha ikkala tomonning majburiyatlarini tasdiqllovchi asosiy dalil hisoblanadi.
- 11.5.** Agar ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelsa, har ikki tomon ham O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladi.
- 11.6.** Qarz oluvchining to'lov qobiliyatini skoring – modellardan foydalangan holda baholash jarayonida Bank erkin/ochiq foydalanishda bo'lgan Qarz oluvchi to'g'risidagi har qanday ma'lumotlardan, shuningdek bunday ma'lumotlarni olish va foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid kelmasa, ushbu turdagи xizmatlar yetkazib beruvchilaridan olingan ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ega.
- 11.7.** Ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, ijro etish, buzish, tugatish,

bekor qilish va haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq bo'lган da'volar, agar kelishuvga erishilmasa, bank joylashgan joyidagi yoki javobgarning joylashgan joyidagi O'zbekiston Respublikasining tegishli fuqarolik sudida yoki Hakamlik sudining sudyasi tomonidan, ularning qoidalariga muvofiq hal qilinadi. Bunday holda, sudni tanlash huquqi da'vogarga beriladi.

11.8. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda uning barcha huquq va majburiyatlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning merosxo'rlariga o'tadi.

11.9. Ushbu Shartnomani imzolash orqali Qarz oluvchi:

- kredit shartlari, tomonlarning majburiyatları va to'lovlarni kiritish jadvali bilan tanishganligini va bunga rozi ekanligini tasdiqlaydi;
- ushbu shartnoma bilan uning shaxsiy ma'lumotlarini Bank va Mikroqarzni kreditlash va qaytarish jarayonida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslar tomonidan qayta ishslashga roziligin bildiradi, bunday rozilik shartnoma imzolangan paytdan boshlab O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan shaxsiy ma'lumotlarni saqlash muddati tugagunga qadar amal qiladi;
- ushbu shartnoma shartlari va Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni kredit byurosi va Kredit ma'lumotlari davlat reestriga berilishiga roziligin bildiradi;
- Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq xatarlar, shu jumladan majburiyatlarni buzganlik uchun qo'llaniladigan neustoyka (jarima, penyalar) va buning natijasida Qarz oluvchining xarajatlar miqdorining oshishi ehtimolidan xabardorligini tasdiqlaydi.
- bank talabiga binoan Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning tuzilgan Shartnoma shartlariga ta'sir qilishi mumkinligi haqida ogohlantirilgan;
- u tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish masalalarida qo'shimcha identifikatsiya (shaxsni tasdiqlash) jarayonini amalga oshirish uchun ushbu Shartnomaning 11.13-bandida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali u bilan bog'lanishga rozilik bildiradi.

11.10. Qarz oluvchi tomonidan bank amaliyotlari jarayonida masofaviy aloqa kanallari orqali amalga oshirilgan tasdiqlar bosma hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi.

11.11. Tomonlar raqamli shaklda tuzilgan hujjatlar Qarz oluvchi tomonidan imzolangan bosma hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydilar. Shu sababli, raqamli shaklda tuzilgan hujjat tomonlar o'rtasidagi nizolar kelib chiqishi uchun dastlabki shart bo'la olmaydi.

11.12. Ushbu Shartnomani tuzish orqali Tomonlar, o'zaro aloqa, munosabat va axborot (xabar) almashishning quyidagi vositalari va usullari to'g'risida kelishib oldilar:

Qarz oluvchi: Mobil telefon (SMS xabarlar va Telegram uchun): _____

Elektron pochta: _____

11.13. Shartnoma ushbu Shartnomaning 2.1-2.2-bandlariga muvofiq mablag'lar hisobga o'tkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

11.14. Ushbu Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzilgan va tomonlarning har biri uchun bitta nusxdadan taqdim qilinadi.

12. Tomonlarning yuridik manzillari, imzolari va bank rekvizitlari

<u>«Bank»</u>	<u>«Qarz oluvchi»</u>
"Octo-bank" AJ Toshkent sh., Furqat ko'chasi, 2. K/s No. MFO: STIR: tel. "Octo-bank" AJ Amaliyot boshgarmasi boshlig'i _____	_____ _____ _____ _____ _____ _____

Jismoniy shaxsning bank kartasiga milliy
 valyutada mikroqarz berish to'g'risida
 «___» ____ 202__ yilgi ___ - sonli shartnomaga
 1 – sonli ilova

Kreditni so'ndirish jadvali

№	To'lov sanasi	Kredit bo'yicha asosiy qarz qoldig'i	To'lov summasi, so'm		
			asosiy qarz	foiz*	jami*

* Agar kredit to'lovlari kreditni so'ndirish jadvalida ko'rsatilgan sanalardan boshqa sanalarda amalga oshirilgan bo'lsa, to'lov summasi ushbu Shartnomaning 3.1. va 3.2. bandlariga muvofiq kredit bo'yicha asosiy qarz qoldig'i summasiga hisoblangan foizlar miqdoriga o'zgaradi.

<u>«Bank»</u>	<u>«Qarz oluvchi»</u>
"Octo-bank" AJ	_____
Toshkent sh., Furqat ko'chasi, 2.	_____
K/s No.	_____
MFO:	_____
STIR:	_____
tel.	_____
"Octo-bank" AJ	_____
Amaliyot boshgarmasi boshlig'i	_____
_____	_____